

TEXNOLOGIYA FANINING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Aliqulova Marg'uba Kuchimovna

Samarqand viloyati Urgut tumani 41-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamning mazmuni shundan iboratki, hozirgi kundagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan davlat ta'lim standartida texnologiya darslari orqali o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini, bitiruvchilarda nostandart sharoitlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mustaqil hayotda zarur bo'ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantirish, texnologiya fanining ahamiyati to'g'risidagi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: San'at, mohirlik, kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, rivojlanish darajasi, texnologik savodxonlikni, texnologik madaniyatni, mehnat madaniyatini, yo'nish, teshish, pardoqlash ishlari, texnik xizmat ko'rsatish, rasm, grafika, dizayn asoslari, mehnat madaniyati va estetikasi.

Texnologiya ta'limini modernizatsiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim tizimlarining o'zaro integratsiya jarayonlarini bosqichma-bosqich, oddiydan-murakkabga qarab yo'lga qo'yilishi natijasida ishlab chiqarish sohalari uchun yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishiladi. Texnologiya ta'limini O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, 2025-yilgacha O'zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi, fan taraqqiyoti va texnik-texnologiyalarning rivojlanishi, bozor munosabatlari va inson kapitaliga qo'yilayotgan yangi talablar asosida modernizatsiyalash lozim. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan texnologiya fanining amaldagi holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ldi: umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini isloh qilish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik

tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga sharoit yaratish muhim shartlardan biridir. "Texnologiya" fani darslarini tashkil etish samaradorligini oshirish, o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalalari atroflicha o'rganilgan, foydali maslahatlar, uslubiy tavsiyalar berilgan. Biz mana shunday tavsiyalardan foydalangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Texnologiya" fani mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini talqin qilib ko'rmoqchimiz. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Texnologiya" fani mashg'ulotlarining samarali bo'lishi eng avvalo shu fan o'qituvchilarning mashg'ulotlarga qay darajada tayyorgarlik ko'rishiga, mashg'ulotlarni o'tkazishni qanday rejalashtirishiga va, nihoyat, amalga oshirishiga bevosita bog'liqdir. Binobarin mashg'ulotlarni qanday rejalashtirish va o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish mashg'ulot samaradorligini oshirishga qaratilgan dastlabki va eng muhim omildir. Bunda, albatta, mashg'ulotlarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning faolligini va darslarning samardorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz Hozirgi zamon "Pedagogika" fani o'qituvchi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rnini va roliga har tomonlama qarash vazifasini yuklaydi. Tarbiyaning maqsadi – yoshlarni komil inson qilish, ularni vatanparvarlik va milliy g'urur ruhida tarbiyalash, ularga insonparvarlik g'oyalarini singdirish, lekin, hammamizga ma'lumki, shaxs salohiyatini rivojlan-tirishning cheksizligi, etnogenezi haqidagi g'oyalar ijtimoiy g'oyaga muddat bilan kirib kelmoqda va bolalar tabiatini tushunishini ancha kengaytirdi va boyitdi. Shuning uchun maktab ishida pedagogning tarbiyaviy faoliyatida yangicha yondashuvlarga sabab bo'ladi va ularning ma'no-mazmuni yangi insonni tarbiyalashda namoyon bo'lmoqda.

"Texnologiya" fanining o'ziga xos xususiyati o'quvchilarni ma'naviy va moddiy madaniyat dunyosiga jalb qilishdir. Agar o'quvchilar adabiyot, tarix va boshqa darslarda ma'naviy madaniyat bilan tanishsalar, unda zamonaviy inson bo'lgan moddiy madaniyat dunyosi boshqa maktab fanlarini hisobga olmaydi, bu esa o'quvchilarni zamonaviy jamiyatga moslashishini qiyinlashtiradi. Moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyatdan farqli o'laroq, inson faoliyati va uning rivojlanishining barcha sohalarini qamrab oladi. Bu vositalar, uy-joy, maishiy buyumlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqalar. Moddiy

va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson hayotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. "Texnologiya" fani maktab o'quvchilari uchun umumiy ta'limining kerakli qismidir, ularga qo'l mehnati va mexanizatsiyalashgan mehnat asoslarini, texnologiyani boshqarish va olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatini beradi. Maktab o'quvchilarini uyni boshqarish texnologiyalari bo'yicha o'qitish - materiallarni, energiyani, ma'lumotni, tabiiy va ijtimoiy muhit ob'ektlarini konvertatsiya qilish va ulardan foydalanishning aniq jarayonlarini ishlab chiqishga asoslangan. Boshlang'ich maktab bosqichida umumta'lim muassasalarida yoshlarni texnologik tayyorlashning o'zgarmas ta'limiy maqsadlari quyidagilardan iborat: ✓texnologik savodxonlikni,

✓ texnologik madaniyatni,

✓ mehnat madaniyatini ,

✓o'quvchilar o'rtasida ishbilarmon shaxslararo munosabatlarning etikasini shakllantirish,

✓ ijodiy faoliyatni rivojlantirish,

✓ kasbni o'zi ongli va mustaqil ravishda belgilashga tayyorlash,

✓ keyinchalik jamiyatda ijtimoiy va mehnatga moslashish.

Shunga ko'ra, o'rganilayotgan texnologiyaning turidan qat'i nazar, "Texnologiya" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturining mazmuni materialni quyidagi so'nggi ta'lim yo'nalishlarida o'rganishni ta'minlaydi:

- texnologik madaniyat;
- zamonaviy ishlab chiqarishning umumiy texnologiyalari;
- mehnat madaniyati va estetikasi;
- texnik ma'lumotlarni olish, qayta ishlov berish, saqlash va ulardan foydalanish;
- rasm, grafika, dizayn asoslari;
- kasblar olami bilan tanishish, kasb-hunar ta'limi va ishga joylashish rejalarini

tuzish;

- texnologik jarayonlarning atrof-muhit va inson salomatligiga ta'siri;
- san'at va hunarmandchilik, dizayn faoliyati;

- texnika va texnologiyalar rivojlanishining tarixi va istiqbollari, ijtimoiy oqibatlari.

Tarbiyaviy ishlar jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida sinf jamoasini kichik guruhlariga bo'lish ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur usul yordamida pedagog o'z o'quvchilarining qiziqish va ehtiyojlari o'rganishga, imkoniyat va qobiliyatlarini aniqlashga hamda rivojlantirishga imkon topishi mumkin. Masalan: sinf (guruh) rahbari o'quvchilarni tarbiyalashda tabaqalashtirish qoidasiga asoslangan holda ularni 5-6 kishidan iborat bo'lgan 3-5 ta kichik guruhlariga ajratadi va ular zimmasiga sinfdagi ijtimoiy hayotning bir aniq soha (o'qish, sport, mehnat, dam olish, badiiy bezatish va b.) bo'yicha mas'uliyatni yuklaydi. Har qaysi kichik guruhning nomi, shiori, emblemasi bo'lishi kerak.

Maktab, litsey, kollej o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy jihatdan to'g'ri tarbiyalash masalalari o'qituvchidan O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlaridan keng va samarali foydalanishni talab qiladi. Shuning uchun, bolaligidan boshlab o'quvchilarda Prezidentimiz, madhiyamiz, bayrog'imiz, gerbimiz, davlatimiz siyosatiga, diniy oqimlarga to'g'ri munosabatini shakllantirish jarayonida o'qituvchi maxsus tayyorlangan ko'rgazmalar, tayanch sxemalar, slaydlar, kino-videofilmlar kabi materiallardan unumli foydalanishi shart. Tarbiya jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarni o'rganishda an'anviy usul vositalardan foydalanmoqda; bular: kuzatib borish, suhbat o'tkazish, ota-onasi oldiga borish va h. Bundan tashqari, tarbiya jarayonida pedagog turli xil anketa va test yordamida maktab psixologi hamkorligida o'z sinfdagi o'quvchilarni o'rganadi. Jumladan, zamonaviy ta'lim-tarbiya o'qituvchidan diagnostik anketa va testlardan foydalanishni talab etmoqda. Bunday anketa yoki test orqali o'qituvchi har qaysi o'quvchining o'qishga, mehnatga, odamlarga, o'ziga munosabatini hamda uning shaxsiy sifatlarini o'rganishga imkon topadi.

Xulosa: Texnologiya ta'limini modernizatsiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish orqali o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va insoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetentsiyalarni shakllantirishga erishiladi. Bu kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar

ta'minotini modernizatsiyalash va inson potentsialidan samarali foydalanish uchun keng yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2017.-140 b

2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Texnologiya>

3. [https://e-](https://e-library.namdu.uz/30%20%D0%A2%D0%B5%D1%85%D0%BD%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Texnologiya%20va%20dizayn.Qurbonov%20B.%20Kurbanova%20G..pdf)

[library.namdu.uz/30%20%D0%A2%D0%B5%D1%85%D0%BD%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Texnologiya%20va%20dizayn.Qurbonov%20B.%20Kurbanova%20G..pdf](https://e-library.namdu.uz/30%20%D0%A2%D0%B5%D1%85%D0%BD%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Texnologiya%20va%20dizayn.Qurbonov%20B.%20Kurbanova%20G..pdf)

4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Texnologiyalar tarixi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Texnologiyalar_tarixi)

5. [file:///C:/Users/user/Downloads/3-5%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/3-5%20(1).pdf)

6. [file:///C:/Users/user/Downloads/978-](file:///C:/Users/user/Downloads/978-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-2775-1-10-20220711%20(1).pdf)

[%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-2775-1-10-20220711%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/978-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-2775-1-10-20220711%20(1).pdf)